

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

S.MAHMUDOVA	
“Turgʻunoy Egamberdiyeva – Fargʻonalik ayollarning gultojidir”	6
	PEDAGOGIKA
X.Kadirov, B.Xamdamov	
Oliy taʼlim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
L.Yoʻldosheva	
Muzeylarda turli xil mashgʻulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
M.Alimjanova	
Taʼlimning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
B.Xaydarov	
Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
G.Absalamova	
Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiyasi tushunchasi.....	28
F.Mirzayeva	
Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
	IQTISODIYOT
T.Xaydarov, B.Karimov	
Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
	FALSAFA, SIYOSAT
N.Hakimov, D.Amrudinova	
Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
I.Raximov	
Oʻzbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon koʻp millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari	48
R.Isamutdinov	
“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
S.Xoliqov	
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha vazifalarining oʻziga xos jihatlari	57
	TARIH
M.Xurramov	
1991 - 2016 yillarda Oʻzbekiston-Qozogʻiston munosabatlarida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
R.Arslonzoda	
Istiqlol yillarida Oʻzbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
I.Gʻulomov, Z.Kasimova	
Oʻzbekiston SSR aholisini roʻyxatga olish	76
Gʻ.Haydarov	
Fargʻona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
G.Dadamirzayeva	
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Fargʻona viloyati artellarining faoliyati.....	88
A.Abduali	
Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri oʻrinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
M.Darmonova	
“Katta qirgʻin”ning yosh qurboni.....	103
L.Sokolova	
Fargʻona vodiysi: ustozga bagʻishlanish marosimining shakllari	107
O.Zaripov	
“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113

**O‘ZBEKISTON SSR AHOLISINI RO‘YXATGA OLISH
(1926 yilgi tadbir misolida)****ПЕРЕПИСЬ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ ССР
(На примере события 1926 г.)****CENSUS OF THE POPULATION OF THE UZBEK SSR
(On the example of the 1926 event)****G‘ulomov Ilhomjon¹, Kasimova Zumradxon Sabirjanovna²****¹Ilhomjon G‘ulomov**– *Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida t.f.f.d. (PhD).***²Kasimova Zumradxon Sabirjanovna**– *Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali katta o‘qituvchisi.***Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston SSRda 1926 yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish tadbiri hamda uning bugungi kundagi tarixiy ahamiyati atroflicha yoritilgan. Shuningdek, maqolada aholini ro‘yxatga olish tadbiridan Sovet hokimiyati hukmron doira vakillarining ko‘zlangan maqsadlari atroflicha yoritilgan. O‘zbekiston SSRda dastlab o‘tkazilgan ushbu tadbirning yakuniy natijalari asosida respublikadagi umumiy aholi soni chop etilgani birlamchi statistik manbalar hamda arxiv ma‘lumotlari asosida keltirib o‘tilgan. Ushbu tadbirning yakuniy natijalariga asoslangan holda respublika iqtisodiyotini oldindan rejalashtirilishi va kelgusi yillarga o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotni oldindan belgilanganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Maqolada o‘lkada aholini ro‘yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ishlarining olib borilishi hamda aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarining olib borilgani to‘g‘risida to‘htalib, ilmiy xulosalar berilgan.

Аннотация

В данной статье изложены мероприятия по переписи населения произведенной в 1926-году в Узбекистан ССР. Также, подробно освещены цели правящих кругов Советской власти от переписи населения. Сформулирована статистика населения, которая была зарегистрирована Управлением Центральной статистики в 1926 году в ходе переписи населения края и конечные итоги данных мероприятий были анализированы на основе первичных статистических ресурсов опубликованных вилоятскими разделами. Далее речь пойдет о планировании дальнейшей социально-экономической и политической жизни в стране на последующие годы и планировании финансов на основе итогов переписи населения. В статье изложены подготовительные мероприятия по переписи населения и ряд допущившихся ошибок. Приведены научные заключения.

Abstract

In this article, it is defined the affairs of register of the population in Uzbekistan SSR (Soviet Socialist Republic) in 1926. In addition, Soviet Union’s purposes is determined widely which is from register of the population. In 1926, the population of the Turkistan is registered and Central Statistical Committee formed population’s statistics. The final results of the register of the population are analyzed respectively through the published main statistic sources which are regions’ sections. Through the conclusion of the register of the population the economical, social, and political life is planned to the next decades in this place. As well as, through the final results of the affairs of register of the population, the number of total population and national content of the regions’ sections are listed. In the article, the process to prepare of the register of the population and its many shortcomings has been revealed and given the scientific conclusions.

Kalit so‘zlar: *Aholini ro‘yxatga olish tadbiri, aholini ro‘yxatga olish dasturi, aholini ro‘yxatga olish shaxsiy varaqasi, aholi soni, aholini soni hisoboti, migratsiya, aholining tabiiy o‘sishi, statistika, doimiy aholi, millat, din, til, shahar, uyezd, qishloq.*

Ключевые слова: *Мероприятия по переписи населения, программа по переписи населения, число населения, отчет о переписи населения, естественный прирост населения, статистика, постоянное население, плотность населения, город, уезд, кишлак.*

Key words: *the affairs of register of the population, the program of register of the population, the number of population, the population report, natural growth of the population, statistics, permanent population, population density, city, village.*

KIRISH:

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida o‘lka hududida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish tadbirlarining mantiqiy davomi sifatida sovet hokimiyati hukmronligi yillarida ham bir necha marotaba aholini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazildi. Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, XIX asr

TARIX

oxiridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr ichida ikki siyosiy tuzumlar sharoitida, ularning amaldagi mafkurasidan kelib chiqib, yaratilgan ADABIYOTLARning keng ko'lami mazkur tadbirlarni asosan bir tomonlama yoritdi.

1926-yilgi tadbir oldingi yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiridan qaysi jihatlari bilan farq qilishini bilish muhim edi. Oldingi tadbirlar natijasida aniqlangan raqamlarga nisbatan aholi to'g'risidagi aniq ma'lumotlarga ega bo'lish istagidan, qolaversa yangi tashkil etilgan milliy respublikalarning iqtisodiyotini oldindan rejalashtirish kabi bir qator maqsadlardan kelib chiqdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

1926-yil dekabrda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalari bo'yicha sovet ittifoqi hukmronligi yillarida chop etilgan bir qancha ilmiy ADABIYOTLARda va ilmiy tadqiqot natijalarida O'zbekiston SSR aholisi soni turli raqamlarda keltiriladi. Masalan: G.R.Asanov o'z tadqiqotlarida mazkur yilgi aholi sonini 4 600 000 nafar deb, I.R.Mullajonov esa 4 660 000 nafar deb, M.Vaxobov esa 4 445 726 nafar deb, "Uzbekistan za godi vosmoy pyatiletki" qisqacha statistik to'plamida esa 4 460 000 nafar aholi ro'yxatga olinganligi, "aholi yashaganli" keltiriladi. Zero, shu o'rinda alohida ta'kidlash asosli bo'ladiki, nafaqat 1926 yilgi ro'yxatga olish tadbirining yakuniy natijalari, qolaversa boshqa yillarda ham mazkur yo'nalishda o'tkazilgan tadbirlarning yakuniy natijalari ayrim birlamchi manbalarda ham turlicha raqamlarda ifodalanadi. Shu bois ham, mazkur davrga oid turli manbalarni o'zaro bir-biri bilan qiyosiy taqqoslash hamda tahlil qilish orqali aniq ma'lumotlar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1926-yili o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirida aholining soni va milliy tarkibida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash, ularni umumlashtirish hamda yangi tarixiy bosqichda rejalashtirilgan "sotsialistik qurilish" uchun muhim bo'lgan sovet hokimiyatining barcha xududlarida istiqomat qiluvchi aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish zarurati tug'ildi. Mazkur yilgi tadbirida dastlab 5 xil ro'yxatga olish rejalashtirildi: 1). Demografik; 2). Qishloq xo'jaligi; 3). Sanoat; 4). Tijorat; 5). Kooperativ. Ammo bu tadbir ham alohida demografik ro'yxatga olish yo'li bilan o'tkazildi.

NATIJALAR VA MUXOKAMA:

1926-yili o'tkazilishi belgilangan tadbir dastlab aholini ro'yxatga olish masalalari bo'yicha ikkinchi Butunittifoq statistika konferensiyasida 1925-yil 3-mart kuni muhokama qilindi. Sovet hokimiyatining partiya va hukumat rahbarlari 1926-yilda Butunittifoq aholisini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish yuzasidan qaror qabul qildi, Mazkur konferensiyada jami 175 nafar kishi qatnashib, ulardan 150 nafari davlat statistika ishchilari, 23 nafari hukumat vakillari va 2 nafari esa ushbu tadbir bo'yicha boshqa davlatdan maxsus taklif qilingan vakillardan iborat edi[1. 21]. Ushbu konferensiya aholini ro'yxatga olish ishlarini tashkil qilishning muhim jihatlarni muhokama qildi. Konferensiyaning barcha ishtirokchilari aholini ro'yxatga olish tadbirini 1926-yil dekabr oyida o'tkazishni ma'qul topdi va tasdiqlash uchun kerakli xujjatlar tayyorlandi. O'tkazilishi belgilangan mazkur tadbirning tashkiliy ishlarini va dasturni ko'rib chiqish hamda qayta tekshirish ishlari statistlarning 1926-yil 1-7-fevral kunlari Butunittifoq syezdi o'tkazildi. Bu yig'ilishda Markaziy Statistika Boshqarmasi (keyingi o'rinlarda MSB deb keltiriladi G'ulomov.I.)ning hududiy boshqarmasi boshliqlari bilan birgalikda jami 604 nafar delegat ishtirok etdi. Yig'ilishda 1926-yilgi tadbirning tashkiliy rejasini va aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq bo'lgan barcha muhim masalalar muhokama etilib, ro'yxatga olish dasturi bo'yicha yakuniy qaror qabul qilindi[2.4].

1926-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiriga alohida tayyorgarliklar ko'rilgan bo'lib, 1897, 1917 va 1920-yillarda o'lka hududida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlariga nisbatan ma'lumotlarning aniqligi hamda O'zbekiston SSRning oldingi yillarda o'tkazilgan tadbirlarga nisbatan barcha hududlarini o'z ichiga keng qamrab olganligi bilan farqlanadi.

Sovet hokimiyatining partiya va hukumat rahbarlari 1926-yilda Butunittifoq aholisini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish yuzasidan qaror qabul qildi[3.11]. Mazkur yilgi tadbirida dastlab 5 xil ro'yxatga olish rejalashtirildi: 1). Demografik; 2). Qishloq xo'jaligi; 3). Sanoat; 4). Tijorat; 5). Kooperativ. Ammo bu tadbir ham alohida demografik ro'yxatga olish yo'li bilan o'tkazildi[4.113]. 1926-yil 17-avgustida SSSR Halq Komissarlari Kengashi mazkur yili o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbir yuzasidan chiqargan qarorida shunday deyiladi: Hususan, ..."bu yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiri faqat demografik ro'yxatga olish bilan cheklaniladi, bir vaqtning o'zida MSBning joriy statistikasi kuchaytiriladi"[5.7]. Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va SSSR Halq Komissarlari Kengashining

1926-yil 3-sentabrdagi qaroriga ko'ra, aholini ro'yxatga olish ishlari 1926-yil dekabrda o'tkazilishi belgilandi. Bu qaror bilan 1927-yil 1-apreligacha boshqa barcha turdagi statistik ishlar bajarilishi taqiqlab qo'yildi[6.114]. Ushbu qaror so'ngida Sovet Ittifoqining uzoq joylari va yetib borish qiyin bo'lgan xududlari uchun aholini ro'yxatga olishning maxsus muddatlari va usullari belgilab ham berildi[7.115].

Bu davrga kelib deyarli bu yo'nalishdagi tadbirlar to'g'risida aholi ongida tushuncha hosil bo'lgan va oldingi (1897, 1917, 1920, 1920) yillarda o'tkazilgan tadbirlardagi kabi ushbu tadbirdan va uyma-uy yurib ro'yxatga oluvchi hisobchilardan kuchli xadixsirash, qo'rquv yo'q edi. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiri uchun ishlab chiqilgan aholi shaxsiy varog'ining ko'rinishi va unda kiritilgan savollar MSBning 1925 yil 1 iyuldagi №104 sonli blyutenida e'lon qilindi[8.20]. 1926 yilgi tadbirni o'tkazish uchun o'zbek va rus tillarida 10 mingga yaqin katta e'lon qog'ozlari tayyorlandi[9.5]. Ularning aksariyati viloyatlarning rayonlariga, uyezdlariga va katta qishloqlariga elon qilish uchun yuborildi. 1926-yili dekabr oyida o'tkazilishi belgilangan tadbirning targ'ibot ishlari rasman 1926-yilning 18-sentabr kundan boshlanib, shu yilning 31-dekabriga qadar davom etdi[10.12].

1926 yilgi aholini ro'yxatga olish tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish ishlari MSBning demografik statistikasi bo'limida V.G.Mixaylovskiy rahbarligida olib borildi. Markazda tayyorgarlik ishlarining tartibi quyidagicha bo'lgan: MSB tarkibidagi bo'lim ro'yxatga olish varog'i yuzasidan u yoki bu savolni ishlab chiqib, ro'yxatga olish komissiyasiga taqdim etar, undan keyin barcha masalalar MSB kollegiyasiga tasdiqlash uchun berilardi[11.19]. Tasdiqlangan savollar asosida 1926 yilgi tadbir dasturi ishlab chiqilib, SSSRning barcha hududlaridagi MSBning mintaqaviy boshqarmalariga yuborilgan.

Ittifoq respublikalari bo'yicha aholini ro'yxatga olishning asosiy xujjatlari – shaxsiy varaqa, oila kartasi, hovlilar bo'yicha vedomostlarni ikki tilda chop etish belgilandi: Hususan, rus va shu respublikaning mahalliy tilida[12.6]. Mazkur yili dekabr oyida o'tkazilishi belgilangan va sovet hukumati tomonidan tasdiqlangan dastur asosida barcha hududlarda ushbu tadbirning o'tkazilishi yuzasidan targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi. Bu davrga kelib deyarli bu yo'nalishdagi tadbirlar to'g'risida aholi ongida tushuncha hosil bo'lgandi. Umuman olganda 1926-yilga kelib mahalliy aholi orasida bu tadbir oldingi tadbirlarga nisbatan biroz ommalashib, odatiy tusga aylanib ulgurandi.

Tadbirga boshqa kasb vakillaridan olingan statsitlarni ham qo'shib hisoblaganda jami 1420 kishi jalb etildi[13.2]. 1926 yil 16 dekabr kuni O'zbekiston SSR MSBning joylardagi hududiy bo'linmalarida ro'yxatga olish ishlariga jalb etilgan barcha xodimlar ishtirokidagi yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda asosiy tushuntirish ishlari ro'yxatga oluvchi hisobchilarga berildi. Sababi, ular joylarda uyma-uy yurib, ro'yxatga olish vaqtida aholi bilan muloqot qilishi, yig'ilgan ma'lumotlarni ehtiyot qilishlari, ro'yxatga olish varog'ining har kunligini o'zlariga biriktirilgan yordamchilardan MSBning hududiy bo'linmalariga yuborishlari kabi talablar qo'yildi hamda tushuntirishlar berildi[14.192].

O'zbekiston SSRda aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish ishlari 1926-yil 17-dekabrda boshlandi[15.4]. SSSRning mazkaziy hududlari va boshqa milliy respublikalarda ushbu tadbir o'tkazilishini yakunlash uchun qat'iy sana belgilangan. Ammo, O'zbekiston SSRning ayrim shaharlarida asosan tog'li qishloq joylarida va Tojikiston ASSR tarkibiga kiruvchi hududlarda ushbu tadbirning o'tkazilishi va yakunlanishi yuzasidan qat'iy kun belgilanmagan[16.38]. Sababi, oldingi o'tkazilgan tadbirlarda ham aholini ro'yxatga olish tadbiri belgilangan muddatlarda o'z nihoyasiga yetmagan. Undan tashqari ro'yxatga oluvchi hisobchilar tomonidan ham juda ko'plab xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Shu bois ham, mazkur yili ushbu tadbirga jalb etilgan barcha xodimlarga ushbu jarayon davomida batafsil va aniq ma'lumotlar olish vazifasi topshiriladi. Aholini ro'yxatga olish tadbirlari bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlardan yana biri shuki, Rossiya iimperiyasi keyinchalik esa sovet hukumati hukmronligi yillarida ham ushbu tadbirlar asosan qish faslida o'tkazilgan. Buning asosiy sabablaridan biri qilib esa aksariyat aholi uyda bo'lganligi bilan izoxlanadi. 1926 yilgi tadbir ham qish faslida boshlangani sababli, O'zbekiston SSRning olis hududlariga borish va mazkur tadbirni o'tkazish uchun yetarli sharoitlar va imkoniyatlar yo'q edi.

O'zbekiston SSRning shaharlarida aholini ro'yxatga olish tadbiri 1926-yilning 17-dekabrda boshlanib, 31-dekabrda tugadi. Xorazm va Andijon okruglari tarkibiga kiruvchi shaharlar bundan

TARIX

mustasno bo'lib, u yerlarda aholini ro'yxatga olish ishlari biroz kech boshlandi va ba'zi joylarda 1927-yilning 15-yanvarida tugadi[17.40]. Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida ushbu tadbir shu yilning 17-dekabrida boshlandi. Qolgan viloyat va tumanlarning qishloq joylarida aholini ro'yxatga olish tadbiri shaharda aholini ro'yxatga olayotgan hisobchilar bo'shaganidan keyin o'tkazildi. Andijon va Xo'jand okruglari hamda Farg'ona viloyatida aholini ro'yxatga olish ishlari 30 kun davom etdi, qolgan hududlarda 1,5–2 oy va Samarqand va Toshkent viloyatlarida bir oydan kamroq bo'lgan vaqtni talab etdi[18.42]. Fikrimcha, aksariyat chekka qishloqlarda mazkur tadbirni o'tkazish uchun yo'lning olisligi va mazkur tadbir qish faslida o'tkazilganligi hamda temir yo'llar yetib bormaganligi ushbu jarayonni o'tkazishga ko'proq vaqt talab qilgan bo'lishi mumkin.

1926-yilgi tadbirda O'zbekiston SSR va Tojikiston ASSRning tog'li hududlaridagi aholi manzilgohlarida aholini ro'yxatga olish ishlari bahorga qoldirilgan[19.3]. Huddi shu hududlarda aholini ro'yxatga olish ishlari aprel oyida boshlanib, iyun oyiga borib tugallandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, barcha hududlarda mazkur tadbirni bir vaqtda boshlab, bir vaqtning o'zida tugatishning iloji yo'q va bunga ko'plab sabablar bor edi. Birgina misol sifatida ro'yxatga oluvchi hisobchilarning yetishmasligini aytish mumkin. 1926-yilgi tadbirga jalb etilgan hisobchilarning aksariyati o'qituvchilar va o'quvchilardan iborat bo'lib, O'zbekiston SSR bo'yicha bu ko'rsatkich 58.6%ni tashkil etgan, ulardan so'ng 37.1% - turli soha vakillari edi, ularning ko'pchiligi ishsizlar (turli bilim yurtlarni tugatgan va hanuzgacha ishga joylashmagan yoshlar) edi[20.6]. 1926-yilgi tadbirda Ittifoq bo'yicha aholini ro'yxatga oluvchi hisoblovchilarning umumiy sonining 40% ni ayollar tashkil etgan. O'zbekiston SSRda bu ko'rsatkich 20 – 21% ni tashkil qilgan. Statistik muassasalarning tajribali ishchilari ko'pincha yo'riqchilar vazifasini bajargan[21.143]. Oldingi tadbirlarda esa ro'yxatga olish uchun jalb etilgan ayollar soni juda kamchilikni tashkil etgan.

Qayd etilganidek, 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiriga mazkur tadbirni yetarlicha tushunmagan juda ko'plab yoshlar (asosan o'quvchilar) jalb etildi. Qishloq hududlarida asosiy ro'yxatga oluvchi hisobchilar – bu o'qituvchilar bo'lsa, shaharlarda esa hisoblovchilar o'rtasida o'quvchi yoshlar va ishsizlar hamda statistik muassasalarning xodimlari ko'pchilikni tashkil qilardi. Ushbu tadbirning yakuniy natijalari chop etilgan birlamchi statistik manbalarda keltirilishicha, O'zbekiston SSR hududida ro'yxatga oluvchi hisoblovchilarning ko'pchiligining yoshi 20 dan 30 yoshgachani tashkil qilgan bo'lib, umumiy hisobda jami ikki mingga yaqin kishi mazkur tadbirga rasman jalb etilganligi manbalarda keltiriladi[22.51].

1926-yili o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirida hududlardagi ma'muriy-hududiy birlik bo'yicha aholini ro'yxatga olish ishlarini tashkil etish sxemasi quyidagicha bo'lgan: a) ro'yxatga olish ishlarini tuman bo'yicha boshqaruvchisi; b) uning yordamchisi; v) yo'riqchilar; g) hisobchilar. Aholini ro'yxatga olishga jalb etilgan xodimlar tarkibi quyidagicha edi: 1) statistika boshqarmasi xodimlari va shtatdan tashqari taklif qilingan hisobchilar; 2) maktab xodimlari; 3) tuman va qishloq xodimlari; 4) kooperativ tashkilotlarning xodimlari; 5) kasaba uyushmalari a'zolari; 6) o'quvchilar; 7) ixtiyoriy korrespondentlardan tashkil topgan[23.106].

1926 yilgi aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish bo'yicha MSB yig'ilishida ro'yxatga olish shaxsiy varaqasi quyidagicha savollar bilan tasdiqlangan[24.217]:

1. Familiyasi, ismi va otasining ismi.
2. Jinsi (erkak, ayol).
3. Yoshi, tug'ilganiga qancha bo'lgan: kun...oy...yil, yoki (bir yoshdan kichik bolalar uchun).
4. a) Qaysi millatga mansub deb hisoblaydi, b) ona tilisi.
5. Muhojir bo'lsa, qaysi davlat fuqarosi.
6. Qayerda tug'ilgan: shu yerdami yoki yo'q. Agar bu yerda bo'lmasa, qayerda: guberniya, uyezd yoki shahar.
7. Doimiy ravishda qancha vaqtdan buyon shu yerda yashaydi: oy, yil yoki vaqtincha.
8. Oilaviy holati (turmush qurmagan, uylangan, turmushga chiqqan, beva, ajrashgan).
9. Ma'lumoti: a) rus tilida: o'qiydi va yozadi yoki faqat o'qiydi: b) boshqa tilda: (qaysi tilda) o'qiydi va yozadi yoki faqat o'qiydi: v) ma'lumotga ega emas.
10. Ma'lumoti: O'qigan muassasasiga ko'ra: a) umumta'lim, kursni tugatganmi? b) maxsus kursni tugatganmi?;

11. Urushlarda harbiy bo'lib qatnashganmi: a) 1914 – 1917 yillar; b) 1918 – 1920-yillar.

12. Qishloq xo'jaligi: a) qishloq xo'jaligida mashg'ulmi va bu mashg'ulotni muhim deb o'ylaydimi? b) u yerda mutaxassislikka egami va qanday? v) o'z xo'jaligida ishlaydimi va kim sifatida (yollanma ishchilarga ega xo'jayin, yollanma ishchisiz xo'jayin, oila a'zosi); g) agar yollanma ishchi bo'lsa, bu yerdami yoki boshqa yerdami; d) 1914 yil urushgacha qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lganmi?;

13. Yashash uchun mablag' beradigan boshqa mashg'ulotlari.

14. O'z mutaxassisligi sifatida qaysi kasbni hisoblaydi.

15. Mashg'ulotga ega bo'lmasa: a) qaysi daromad evaziga va kimning hisobiga yashaydi? b) tirikchilik vositalari bilan ta'minlaydigan kasbi va mavqei;

16. Mehnatga layoqatlimi?

17. Jismoniy kamchilikar to'g'risidagi belgilar (yoki og'ir shikastlanishlar).

18. Ruhiy kasallar to'g'risidagi belgilar.

Yuqoridagi savollarni 1897, 1917 va 1920-yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarining ro'yxatga olish varaqlariga kiritilgan savollari bilan taqqoslansa, 1926-yilgi savollarning aksariyati o'zgargan yoki biroz kengaytirilgan. Oldingi tadbirlarda savollarning umumiy soni 14 yoki 15 tani tashkil etgan[25.12, 17-19]. Bundan tashqari ko'plab savollar yana bir necha mayda savollarga bo'lingan. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish tadbiri uchun ishlab chiqilgan dastur mazmuni 4 ta ro'yxatga olish varog'i bilan belgilangan: Hususan, 1). Shaxsiy varaqa; 2). Oila kartasi; 3). Egalik vedomosti; 4). Uy egalari ro'yxati[26.122].

Mazkur yilgi tadbirda to'ldirilgan shaxsiy varaqalarni qayta ishlash asosan 1928-yil sentabr oyida tugatilgan bo'lib, ya'ni ushbu jarayon umumiy xisobda 20 oy davom etdi[27.123]. 1926-yilgi tadbirning yakuniy natijalari nashri "1926 yil Butunittifoq aholisini ro'yxatga olish" nomi bilan 56 ta tomida nashr etildi.

Asosiy nashr umumiy holda 1932 yilda tugatildi. Bir qator nashrlarni mahalliy statistik organlar (respublika, guberniya, okrug) kesimida taqdim etildi. Qoniqarli darajada tashkil etilgan va 1926 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ishlari sovet hokimiyati uchun siyosiy va halq xo'jaligi jihatidan kattagina ahamiyatga ega bo'lgan hamda xududlar kesimida olib qaraganda juda boy ma'lumotlarni taqdim etdi. Bu ma'lumotlar shu yilga qadar Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati hukmronlik yillarida o'tkazilgan mazkur yo'nalishdagi tadbirlarning mukammali deya MSB hamda sovet hokimiyati hukmron doira vakillari tomonidan ta'kidlandi[28.4]. Fikrimcha, mazkur yili barcha hududlar bo'yicha yig'ilgan aholi soni va uning turmush tarzi to'g'risidagi ma'lumotlar o'z navbatida SSSRning barcha markaziy hududlari uchun ham balki, mustamlaka bo'lgan milliy respublikalar uchun ham Stalinning birinchi besh yillik rejasini tuzishda asosiy hujjatlardan biri bo'ldi deya ta'kidlash o'rinni bo'ladi.

Rossiya iqtisodiyotini monopollashtirish yo'lida kurashgan bolsheviklar partiyasi birinchi o'rinda ancha zaif bo'lgan ishchilar sinfi tarkibiga kiruvchi aholi soni bilan qiziqqan va bundan manfaatdor edi. Mazkur yilgi tadbir yakunidagi ma'lumotlar orqali ko'rish mumkinki, bu davrdagi ishchilarning aksariyati xususiy sektorda band bo'lgan. 1926 yilgi aholi ro'yxati tadbirlari yakuni bo'yicha natijalarini tahlil qilinganda tadqiq etilayotgan mazkur davrda O'zbekiston SSRda umumiy hisobda 303 407 nafar ishchi va xizmatchilar ro'yxatga olinganligi kelib chiqadi[29.51]. Mazkur keltirib o'tilgan raqamlardagi mahalliy aholi Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati hukmronligi yillarida turli maqsadlarda qurilgan zavod va fabrikalarda, turli korxonalarda ishlovchi aholi hisoblangan[30.87]. Fikrimcha 1926 yili o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirida mustaqil ravishda dexqonchilik, hunurmandchilik bilan shug'ullangan va boshqa sohalarida ham mustaqil yollanib ishlagan mahalliy aholi va boshqa millat vakillari soni ham bu ro'yxatga qo'shib yuborilgan bo'lishi mumkin. 1926 yilgi tadbirning yakuniy natijalari chop etilgan hamda birlamchi manba hisoblangan statistik to'plamlarda keltirilishicha yirik korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xizmatchilarning soni 6 421 nafar deb ta'kidlangan[31.43]. Shu yilgi ro'yxatga olish ishlarida respublikada 15 300 nafar aholi mutlaqo ishsiz sifatida ko'rsatilib, qayd etiladi[32.134].

XULOSA:

Umuman olganda Turkiston o'lkasida keyinchalik esa O'zbekiston SSR hududida sovet hukumati tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida bir qator kamchiliklar borligiga qaramay, bu tadbirlar o'tkazilishini salbiy baholash va bir tomonlama fikr bildirish fikrimcha

TARIX

noto'g'ridir. Sababi, 1897 – 1920-yillardagi aholi ro'yxatlarining yakuniy natijalari chop etilgan birlamchi statistik manbalarga tayanib Turkiston o'lkasidagi aholi soni, milliy tarkibi, migratsiya, emigratsiya, o'lka iqtisodiyoti qanday rejalashtirilganligi, shahar va qishloq aholisining kundalik turmush tarzi va shu kabi boshqa ko'plab aholi to'g'risidagi aniq va oldingi yillarga nisbatan birmuncha batafsilroq bo'lgan statistik ma'lumotlarni o'rganishimiz mumkin. Umuman olganda aholini ro'yxatga olish tadbirlari rus hukmron doira vakillari uchun ijobiy jarayon bo'lgan. O'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarining yakuniy natijalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy yo'nalishlarda olib borilgan keng ko'lamlı ishlar milliy respublika iqtisodiyotini har tomonlama ekspluatatsiya qilinishini ko'rsatib berdi. Bir so'z bilan aytganda o'tkazilgan mazkur tadbirlar SSSRning mintaqada rejalashtirgan mustamlakachilik maqsadlariga xizmat qildi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, sovet davri tarixshunosligida mazkur yilgi tadbirning o'tkazilishi va uning yakuniy natijalaridan ko'zlangan bir qator maqsadlarga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rejalar mavjud tuzum mafkurasidan kelib chiqqan holda faqatgina bir tomonlama yoritilib, maqtab borildi holos. Vaholanki, mazkur tadbirlar yakunida aniqlagan ma'lumotlardan respublikada istiqomat qiluvchi mahalliy aholining turmush-tarzini yaxshilashga umuman ahamiyat qaratilmadi. Respublika hududida bugungi kunga qadar rasman o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarining yakuniy natijalarini mazkur davrga oid birlamchi statistik manbalar hamda arxiv ma'lumotlari asosida hamda ularni qiyosiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotdan olingan natijalar asosida berilgan xulosalar hamda o'nda yo'l qo'yilgan bir qator kamchiliklarni kelgusida o'tkazilishi belgilangan tadbirlarda takrorlamaslik va asoslangan ilmiy takliflar berish bugungi kunda aholisi tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan O'zbekistonning demografik taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashda hamda kelgusida kutilayotgan muhim o'zgarishlarni aniqlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Воробьев Н. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Редакционно-издательское управление В/О "СОЮЗОРГУЧЕТ". Москва 1938 г.
2. Ўз МА, фонд, № Р 1619, 11-рўйхат, 52-йиғма жилд.
3. Воробьев Н. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Редакционно-издательское управление В/О "СОЮЗОРГУЧЕТ". Москва 1938 г.
4. Пустоход П.И., Воблий В.К. Переписи населения. – Москва, Государственное социально-экономическое издательство. 1936 г.
5. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том II. Узбекская ССР. Москва. Издания ЦСУ Союза ССР. 1928 г.
6. Пустоход П.И., Воблий В.К. Переписи населения. – Москва, Государственное социально-экономическое издательство. 1936 г.
7. Пустоход П.И., Воблий В.К. Переписи населения. – Москва, Государственное социально-экономическое издательство. 1936 г.
8. Воробьев Н. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Редакционно-издательское управление В/О "СОЮЗОРГУЧЕТ". Москва 1938 г.
9. Ўз МА, фонд № Р 1619, рўйхат № 11, 54-йиғма жилд.
10. Ўз МА, фонд № Р 1619, рўйхат № 11, 57-йиғма жилд.
11. Воробьев Н. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Редакционно-издательское управление В/О "СОЮЗОРГУЧЕТ". Москва 1938 г.
12. Ўз МА, фонд, № Р 1619, 11-рўйхат, 52-йиғма жилд.
13. Ўз МА, фонд, № Р 1619, 11-рўйхат, 53-йиғма жилд.
14. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том XV. Узбекская ССР. Москва. Издания ЦСУ Союза ССР. 1928 г.
15. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том XV. Узбекская ССР. Москва. Издания ЦСУ Союза ССР. 1928 г.
16. Воробьев Н. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Редакционно-издательское управление В/О "СОЮЗОРГУЧЕТ". Москва 1938 г.
17. Воробьев Н. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Редакционно-издательское управление В/О "СОЮЗОРГУЧЕТ". Москва 1938 г.
18. Ўз МА, фонд, № Р 1619, 11-рўйхат, 53-йиғма жилд.
19. Ўз МА, фонд, № Р 1619, 12-рўйхат, 57-йиғма жилд.
20. Ўз МА, фонд, № Р 1619, 12-рўйхат, 57-йиғма жилд.
21. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том XV. Узбекская ССР. Москва. Издания ЦСУ Союза ССР. 1928 г.

22. Воробьев Н. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Редакционно-издательское управление В/О "СОЮЗОРГУЧЕТ". Москва 1938 г.
23. Пустоход П.И., Воблий В.К. Переписи населения. – Москва, Государственное социально-экономическое издательство, 1936 г.
24. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том XV. Узбекская ССР. Москва. Издания ЦСУ Союза ССР. 1928 г.
25. Первая всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. Общий сводъ по империи результатовъ разработки данных первой всеобщей переписи населения, произведенной 28 января 1897 года. Том I. – Петербург. 1905 г. – С.12., Материалы всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Часть I. – Ташкент, Издания ЦСУ Туркестанской Республики. 1923 г.
26. Пустоход П.И., Воблий В.К. Переписи населения. – Москва, Государственное социально-экономическое издательство. 1936 г.
27. Пустоход П.И., Воблий В.К. Переписи населения. – Москва, Государственное социально-экономическое издательство. 1936 г.
28. Ўз МА. Фонд, № Р 86, 1-рўйхат, 4507-йиғма жилд.
29. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том XV. Узбекская ССР. Москва. Издания ЦСУ Союза ССР. 1928 г.
30. Нуруллаев А.Н. Сельскохозяйственный отряд рабочего класса Узбекистана в репид строительства социализма (1924-1941 гг.). Тошкент. Фан. 1976 г.
31. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Том XV. Узбекская ССР. Москва. Издания ЦСУ Союза ССР. 1928 г.
32. Махкамова Н.Р. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX в. – 30 – е годы XX в.) Тошкент. Алоқачи. 2009 г.